



## SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

*Umida Yuldasheva,*

*PhD., TMI "Xalqaro moliya-kredit" kafedrasida dotsenti. Email: [umida\\_yu@mail.ru](mailto:umida_yu@mail.ru)  
ORCID: 0000-0001-9993-8629*

## FOREIGN EXPERIENCE IN OPTIMIZING THE TAX BURDEN AND THE POSSIBILITY OF ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN

*Umida Yuldasheva,*

*PhD., Associate Professor of the Department "International Finance and Credit" of the Tashkent Financial Institute. Email: [umida\\_yu@mail.ru](mailto:umida_yu@mail.ru)  
ORCID: 0000-0001-9993-8629*

### **JEL Classification:** H1,H7,H71

**Annotatsiya:** Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar mavjud. Xorijiy mamlakatlarda xususan rivojlangan davlatlarda soliq yukini aniqlash hamda mazkur ko'rsatkichni tahlil qilish jarayonida soliq yuki darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni xorijiy mamlakatlar soliq tizimlarining o'ziga xos jihatlari inobatga olgan holda tadqiq etish yo'llari ko'rsatilgan.

Ma'lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan byudjetga tushadigan

mablag' albatta kamayadi. Buni samarali soliq ma'muriyatchiligi orqali bartaraf etish va byudjet barqarorligini ta'minlash mumkin.

Aynan shunga erishish birinchi galdagi vazifadir. Soliq ma'muriyatchiligi shunday bo'lishi kerakki, qo'shilgan qiymat solig'i keng joriy qilinsa ham bu holat iste'mol tovarlarining narxi o'sishiga olib kelmasligi shart va zarur. Soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim. Zero, berilgan imtiyoz raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tadbirkorlarning o'zlari ham e'tirof etmoqdalar.

Haqiqatdan ham, korxonalarining soliq yuki darajasini kamaytirib borish, ularga nisbatan optimal darajadagi soliq yukini belgilash va shu miqdorni davomiy saqlab turishdan davlat va soliq to'lovchilar bir xilda manfaatdordirlar. Soliq yuki darajasini optimal baholanishi bir tomondan korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan davlat byudjet daromadlarining

*barqaror sur'atlarda tushib turishini ta'minlaydi.*

Dunyo mamlakatlari o'rtasida ko'p sonli soliq shartnomalari tuzilishi bir qator tan olingan xalqaro standartlarning rivojlanishiga olib keldi. O'zbekiston tomonidan tuzilgan va tuzilgan shartnomalar OECD tomonidan ishlab chiqilgan kelishuv modeliga asoslanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish va daromad va kapitalga soliq to'lashdan qochishning oldini olish to'g'risida 50 ta kelishuv mavjud. Bunday shartnomalar korporativ daromad solig'i, shaxsiy daromad solig'i va mulk solig'i bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 4-moddasiga muvofiq yuqoridagi shartnomalar xalqaro xarakterdagi hujjat sifatida milliy qonunchilik normalaridan ustundir.

Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan xalqaro shartnomalarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi, xalqaro bozorda mamlakatning iqtisodiy subyektlari manfaatlarini himoya qiladi.

**Abstract:** *Consistent reduction of the tax burden, simplification of the taxation system and improvement of tax administration are the most important conditions for accelerated economic development and improvement of the country's investment attractiveness. At the same time, there are a number of systemic problems whose research results hinder uniform economic growth in this area, increase business and investment activity, formation of a healthy competitive environment, as well as ensuring the necessary level of tax collection and other mandatory payments. In the process of determining the tax*

*burden in foreign countries, in particular in developed countries, and analyzing this indicator, ways are outlined to study the factors affecting the level of the tax burden, taking into account the specifics of the tax systems of foreign countries.*

*As you know, when tax rates are reduced or some taxes are abolished, budget revenues are necessarily reduced. This can be overcome by effective tax administration and ensuring budget stability.*

*To achieve this is the number one task. Tax administration should be such that even with the widespread introduction of value added tax, this circumstance does not lead to an increase in prices for consumer goods, provided and necessary. By reducing the tax burden, it is necessary to introduce a uniform and fair tax regime for all, and gradually abolish tax benefits. After all, entrepreneurs themselves admit that this benefit negatively affects the competitive environment.*

*Indeed, the state and taxpayers are equally interested in reducing the level of the tax burden of enterprises, establishing an optimal level of tax burden for them and maintaining this amount for a long time. An optimal assessment of the level of the tax burden, on the one hand, stimulates the financial and economic activities of enterprises, and on the other hand, ensures a steady flow of income to the state budget.*

*The conclusion of a large number of tax agreements between the countries of the world has led to the development of a number of generally recognized international standards. The agreements concluded and concluded by Uzbekistan are based on the agreement model developed by the OECD. To date, the*

*Republic of Uzbekistan has 50 agreements on the avoidance of double taxation and the prevention of tax evasion on income and capital. Such contracts are related to corporate income tax, personal income tax and property tax. In accordance with article 4 of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan, the above-mentioned agreements, as documents of an international nature, have priority over the norms of national legislation.*

*It should be noted that the implementation of the above-mentioned international agreements contributes to the successful integration of the Republic of Uzbekistan into the world community, protects the interests of the country's economic entities in the international market.*

**Kalit so'zlar:** *Soliq yuki, xorijiy mamlakatlar, investitsiyaviy jozibadorlik, tahlil, soliq tushumlari, soliq ma'muriyatchiligi, YaIM.*

**Keywords:** *Tax burden, foreign countries, investment attractiveness, analysis, tax revenues, tax administration, GDP.*

**Kirish.** So'nggi yillarda mamlakatimiz soliq ma'muriyatchiligi tubdan isloh qilinmoqda. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 yanvar kuni «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»[1] gi farmonida soliq yukini YaIMga nisbatan 25% gacha kamaytirish, 120 mlrd dollar hajmidagi investitsiyalarni jalb etish, aholini ko'chirishning umumiy sxemasini ishlab chiqish, eskirgan uy-joylar o'rnida rekonstruksiya asosida zamonaviy massivlarni barpo etish va 275 ming oilani ko'chirish, 2023 yilga qadar inflyatsiyani 5% gacha kamaytirish va boshqa ko'plab

maqsadlarni nazarda tutadi. Bundan kelib chiqib, aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yukini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bunda korxonalarining mol-mulk solig'i stavkasini 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirish belgilanadi.

Buning natijasida jarayonlar to'liq avtomatlashtiriladi, «yashirin iqtisodiyot» hajmini kamaytirish uchun soliq to'siqlari bartaraf etiladi, kadrlar salohiyati mustahkamlanadi.

Ta'kidlash lozimki, soliq yuki darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bu soliq imtiyozlari hisoblanadi. Jahon soliq solish amaliyotida soliq imtiyozlaridan foydalanish bilan bog'liq ikki muqobil yo'nalishlarni kuzatishimiz mumkin. Bunda umumiy va yuqori soliq stavkalarini qo'llagan holda, ba'zi sohalarda soliq stavkalarini turkumlash, ko'p sonli soliq imtiyozlarini va soliqqa tortiladigan daromaddan chegirmalarni joriy etish orqali iqtisodiyotdagi soliq yuki darajasini optimallashtirishga erishish bo'lsa, Ikkinchi yo'nalish sifatida esa soliq imtiyozlari va chegirmalaridan voz kechish orqali soliq bazasini kengaytirishga va soliqqa tortishning umumiy stavkasini pasaytirishga erishish orqali soliq yuki darajasini kamaytirishga erishish tadbirlari hisoblanadi.

Umumiy va yuqori soliq stavkalarini qo'llagan holda, soliq stavkalarini turkumlash va qator soliq imtiyozlarini, soliqqa tortiladigan daromaddan chegirmalarni joriy etish orqali iqtisodiyotdagi soliq yuki darajasini optimallashtirishda davlatning iqtisodiyotga aralashuv xarajatlari hajmi ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, davlat iqtisodiyotdagi ijtimoiy xarajatlarning asosiy qismini o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi. Yuqori

darajada soliqqa tortish jarayoni esa bunga imkon yaratadi.

**Material va metod.** Ko'p yillardan buyon olimlarning diqqat markazida bo'lgan masalalardan biri bu korxonalar zimmasiga tushishi mumkin bo'lgan, ilmiy asoslangan optimal soliq yuki darajasini aniqlashdir. O'z davrida K. Gok soliq yuki darajasining eng optimal, adolatli holatini aniqlash imkoniyatining murakkabligini ta'kidlab, "Angliya uchun har bir insonga 50 shillingdan soliq og'irligining tushishi hamda og'ir bo'lmagan sharoitda Ostindiya uchun jon boshiga atigi 1 shillingdan belgilanishi ular uchun o'ta darajada og'ir hisoblanadi, yoki Irlandiyaning 6 mln. aholisi to'lashi lozim bo'lgan soliq summasini Shotlandiyaning 2 mln. aholisiga mazkur summani to'lash hech qanday og'irlik hisoblanmaydi"[2] degan fikrlarini bildiradi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, doimo tahlil mavzusi markazida alohida davlat yoki aniq aholi guruhlari zimmasiga tushayotgan soliq og'irliklari masalalari tadqiq etilgan bo'lib, korxonalar miqyosida barcha ichki va tashqi omillarni inobatga olgan holda, soliq yukining optimal ilmiy asoslangan hamda adolatli darajasini aniqlash masalasi yetarlicha o'rganilmagan.

Soliq yuki qadimda "o'nliklardan" boshlanib, o'sish tendensiyasiga egaligini ifoda etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda soliq yukini aniqlash bo'yicha keltirilgan fikrlarni tadqiq etarkanmiz, bugungi kunda mazkur ko'rsatkichni aniqlashda K.F.Shmelevning fikrlari diqqatga sazovordir.

Uning fikricha soliq yuki darajasiga boshqa keltirilgan omillardan tashqari qo'yidagi, ya'ni, davlat aholisini asosiy qismining turmush darajasi, aholining o'sish tempi va yosh tarkibi dinamikasi, davlatning iqtisodiy tuzilishi, davlat xarajatlarining xarakterli xususiyatlari, amaldagi soliqqa

tortish tizimi kabi qo'shimcha omillar ham bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi[3].

F.Shmelevning fikrlariga qo'shimcha qilgan holda, bizningcha, xo'jalik subyekting zimmasiga tushayotgan soliq yukining ortishi yoki kamayishiga bugungi zamonaviy shartlarda qo'yidagi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi:

– xo'jalik subyekting tashkiliy-huquqiy shakli hamda moliyaviy resurslarining shakllanishi va boshlang'ich kapitalning tashkil topishining o'ziga xos xususiyatlari;

– xo'jalik subyekting davlatni maxsus investitsion va boshqa loyihalarida ishtiroki, soliq kreditlariga egaligi, byudjet ssudalarining mavjudligi, soliqlar bo'yicha to'lovlarni kechiktirishlarning qo'llanilishi kabilardir.

Shu nuqtai nazardan yondashganda har bir xo'jalik subyekti uchun soliq yukining og'irligi individual xarakterga ega bo'lib, uni aniqlashda nafaqat iqtisodiy omillarni balki siyosiy omillarni ham inobatga olish lozimdir. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, soliq yukini aniqlash yuzasidan olimlarimiz o'rtasida qo'yidagi yo'nalishlarda bugungi kunda baxs - munozaralar olib borilmoqda[4]. Ya'ni:

–xo'jalik subyekti zimmasiga tushayotgan soliq yukini aniqlashda jismoniy shaxslar daromad solig'ini kiritish lozimmi yoki yo'q;

–hisob kitoblarda egri soliqlarni inobatga olish lozimmi yoki yo'q.

Olimlarning fikricha mazkur soliqlarning og'irligi oxirgi iste'molchi zimmasiga tushadi. Bizning fikrimizcha, esa albatta inobatga olish lozim faqat maxsus hisoblash usuli asosida. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim olimlar o'z hisoblash formulalarida QQS bo'yicha soliq chegirmalari mavjudligini inobatga olishmaydi, bu holat esa soliq yuki

darajasining ko'tarilishiga olib kelishi mumkin.

1. Soliq yukini aniqlashda xo'jalik subyektini hisoblagan hamda to'lagan soliq va yig'imlarni qaysi baza bilan solishtirish lozim, ya'ni iqtisodiy adabiyotlarda bunday ko'rsatkich sifatida qo'yidagilar keltiriladi:

– korxonalar erishgan foydasi ko'rsatkichi. Bizningcha, soliq yukini darajasini aniqlashda nisbatlanadigan ko'rsatkich sifatida foydani olinishi, masalan to'la - to'kis ochishga xizmat qilmaydi, chunki har doim ham soliq to'lash manbai sifatida foyda maydonga chiqmaydi. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichni qo'llanilishi soliq yukini darajasini yuqori ayrim-hollarda 100 foizga teng bo'lishiga olib kelishi mumkin;

– qo'shilgan yoki yangidan yaratilgan qiymat ko'rsatkichi. Albatta mazkur ko'rsatkich nisbatan to'g'ri kelishi mumkin. Ammo ayrim soliq turlari nisbatan kengroq bazaga ega bo'lib, mazkur ko'rsatkichning hajmiga bevosita bog'liq bo'lmasligi mumkin.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni, ta'riflarni tadqiq etgan holda soliq yukiga bizning nazarimizda qo'yidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Soliq yukini - amaldagi soliq qonunchiligidan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan soliq yukini aniqlanayotgan hisobot davrida hisoblangan va to'langan barcha soliq va boshqa majburiy to'lovlar, yig'imlar, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar hamda xo'jalik subyektini tomonidan soliq ma'murchiligi xarajatlarning umumiy yig'indisini, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati qaralayotgan hisobot davrida yaratilgan qo'shilgan qiymatiga nisbati sifatida foizli tarzda aniqlangan ko'rsatkichdir[5].

Bizningcha, to'g'ri va aniq hisoblangan hamda haqiqatda korxonalar zimmasidagi

soliqlar og'irligini ifodalovchi soliq yukini aniqlash muhimdir. Aynan mazkur ko'rsatkich kelgusida korxonalar faoliyatini rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan choratadbirlarning asosi hisoblanadi. Albatta, korxonalar zimmasidagi soliq yukini optimal darajasini aniqlashda yuqorida ta'kidlaganimizdek, korxonalar faoliyatining daromadlilik darajasi, korxonalarda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatning hajmi kabi ko'rsatkichlarni ham tadqiq etish lozim. Chunki ko'pgina iqtisodchi olimlarimiz fikricha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida soliq yukining og'ir bo'lishi aksariyat hollarda ular faoliyati davomida yaratilgan qo'shilgan qiymatning darajasiga bog'liq deb hisoblab, aksariyati mikrodarajada ya'ni korxonalar miqyosida soliq yukini qo'shilgan qiymatga nisbatan aniqlashni taklif etishadi, bu ular fikricha soliq yukini haqqoniy darajasini topish imkonini berar ekan.

**Natijalar.** Jahon amaliyotida soliq imtiyozlari keng tartibda qo'llanilib, turli mamlakatlarda ular turlicha tarkibga ega. Rivojlangan davlatlar soliq tizimi amaliyotida foydalaniladigan soliq imtiyozlarining tahlili ayniqsa diqqatga sazovordir. Imtiyozlar avvalo, har bir yirik soliq turiga nisbatan qo'llanilib, ularning asl maqsadi joriy soliqlarda yaqqolroq ifodalanadi. Soliq imtiyozlarining birinchi navbatda, ishlab chiqarish va tadbirkorlikni umumiy tartibda qo'llab-quvvatlashga qaratilganligini inobatga oladigan bo'lsak, ular shuningdek, ayrim ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilganligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi amaliyotida qo'llaniladigan soliq imtiyozlaridan yana bir turi bu - soliqdan to'liq ozod qilish va "soliq ta'tillari" muddatlarini o'rnatish bo'lib, bunday turdagi imtiyozlar Yevropa davlatlarida ko'proq qo'llaniladi. Masalan, Fransiyada

kompaniyalarning chet elga investitsiya qilishga, yangi tadbirkorlarni rag'batlantirish uchun soliqlardan vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni tashkil qilishlari mumkin.

Finlyandiya solliqlardan investitsion soliq kreditlarini yetakchi tarmoqlardan biri bo'lgan kemasozlikni rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Belgiyada solliqlardan ozod qilishning 10 yillik ta'tili kichik venchur firmalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan[6].

Yuqoridagi solishtirma ma'lumotlaridan kelib chiqib, jahon amaliyotida soliq imtiyozlarini belgilashning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tish mumkin:

- soliq imtiyozlarining individual xarakterga ega bo'lmasligi;
- soliq imtiyozlarining diskriminatsion xarakterda bo'lmasligi;
- soliq imtiyozlaridan foydalanishning ixtiyoriyligi;
- soliq imtiyozlarini qo'llash muddatlarining mavjud emasligidir.

Rivojlangan mamlakatlarda shakllangan bu jihatlar ularning soliq tizimini xususan, soliq imtiyozlari mexanizmining samarali ishlashiga zamin yaratadi. Xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotdagi soliq yuki darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi soliq imtiyozlari to'g'risidagi mulohazalarini tadqiq etadigan bo'lsak, iqtisodchi olim I.Xadarning "The International Lawyer" ilmiy jurnalida ilmiy maqolasi e'lon qilingan "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliq imtiyozlarining o'rni: rivojlanayotgan davlatlar misolida" (eng: "The Role of Tax Incentives in Attracting Foreign Investments in Selected Developing Countries")[7] nomli maqolasida muallif asosiy e'tiborni soliq imtiyozlarini investitsiya kiritayotgan

investorning holatiga va ularni rag'batlantirish xususiyatlariga qaratgan.

Bunda asosan mahalliy investorlar tomonidan jalb etilayotgan investitsiyalar bilan xorijiy investorlarga iqtisodiy rag'batlantiruvchi kuch sifatida soliq imtiyozlarining samaradorligi tahlil qilingan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida xorijiy investitsiyalarni dastlabki jalb qilish jarayonida olib borilayotgan raqobat doirasida berilayotgan soliq imtiyozlari va rag'batlarini qanchalik samarali yoki samarasiz tadbiriq etilayotgan imtiyozlarning byudjet mablag'larini yo'qotishlarga olib kelishi, ularni soliq yuki darajasiga ta'siri yuzasidan mulohazalar keltirilgan.

Agar xorijiy adabiyotlardagi "davlat byudjetida soliq yuki" tushunchasining talqiniga nazar tashlasak, masalan, "Public budgeting systems" nomli qo'llanmada keltirilishicha, "davlat byudjetining kelib chiqishi, rivojlanishi va isloh qilib borilishi davlat boshqaruvidagi rasmiy shaxslarni o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik va mas'uliyatga chaqirishga bo'lgan intilish bilan va soliq yuki darajasiga bog'liq"[8] deb qaralishi mumkin.

Tahlillar davomida shuni ko'rish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda investitsiyalarni jalb qilishdan keyingi jarayonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar davomida berilayotgan soliq imtiyozlarining murakkab ko'rinishga ega bo'lishi yoki ularni tez-tez o'zgartirib turilishi ham ko'p hollarda ularning samaradorligini pasayishiga olib keladi. Shuning uchun, investitsion muhitni yaratishda olib borilayotgan islohotlarning samarali va izchil davomiyligi hamda byurokratik to'siqlar va ma'muriy buyruqbozlik investorlarning noroziligiga sabab bo'ladi. Shu maqsadda, muallif investorlarning dastlabki faoliyati jarayonida ularga berilgan imtiyozga qo'shimcha tarzda

yana va yana imtiyozlar berish emas, balki ularning mazkur muhitga ko'nikma hosil qilishini ta'minlash zarur, deb baholaydi va muallif fikricha bu soliq yuki darajasini optimallashtirishga ham xizmat qilishi mumkin.


Muallif bu borada Janubiy Koreyada xorijiy investorlarga ko'maklashish maqsadida Hukumat darajasida tashkil etilgan "bir bekat" servis markazini investorlar uchun barcha ma'muriy jarayonlardagi xizmatlarining tashkil etilganligi, Tayvanda maxsus zona tashkil etilgan bo'lib, investorlarga turli xildagi samarasiz soliq imtiyozlarini bermasdan, balki ma'lum bir faoliyat turiga mutanosib ravishda soliq turlaridan tegishli rag'batlantiruvchi imtiyozlarni taqdim etilganligini; Isroilda esa nafaqat xorijiy investorlar uchun, balki mahalliy investorlarning mablag'laridan unumli foydalanish maqsadida, davlatning barcha hududlarida tegishli maxsus zonalar tashkil etilib, mahalliy investorlar tomonidan shu zonalarda sanoat korxonalarini tashkil etilib, ularga faoliyat turidan kelib chiqib turli soliq imtiyozlari taqdim etilganini, buning natijasida xorijiy investorlar uchun tashkil etilgan qulayliklardan samarali foydalanib, faoliyat olib borayotgan korxonalar bilan birgalikda qo'shma korxonalar tashkil etilayotgani, bunday yangi tashkil etilgan

qo'shma korxonalar uchun esa Hukumat darajasida yana qo'shimcha soliq imtiyozlari joriy etilib, ularning samarali faoliyat yuritishlariga zamin yaratganligini ta'kidlaydi va kelgusida esa bu korxonalarining mahalliy bo'linmalari davlatning boshqa hududlariga ham tarqalib, o'z faoliyatlarini kengaytirayotganini e'tirof etgan.

Soliq imtiyozlari tahlil qilingan davlatlarning deyarli barchasida mahalliy investorlarni qo'llab-quvvatlash xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlash darajasida olib borilmaganligini ta'kidlab, davlat boshqaruvi organlarining adolatsiz faoliyati hamda korrupsiya natijasida mahalliy investorlarning faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratmaganligi oqibatida, berilayotgan soliq imtiyozlari mahalliy investorlar tomonidan zamonaviy asbob-uskunalarining chetdan olib kelinishi hamda ulardan samarali foydalanishda kutilgan natijalarni bermagan, deb baholaydi.

Keltirilgan rasm ma'lumotlaridan jahon mamlakatlarining ayrimlarining YaIMga nisbatan soliq yuki ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarni uch bosqichga bo'lib o'rganamiz.

Birinchi bosqichda Fransiyada, soliq yuki eng yuqori bo'lib 44 foizni, Italiyada 41,6 foizni, ikkinchi bosqichda Germaniyada 36,1 foizni, Rossiya



**1-rasm. 2020-yilda jahon mamlakatlarida YaIMga nisbatan soliq yuki ko'rsatkichlari[9]**

25 foizni, Buyuk Britaniya 31,8 foizni, Yaponiyada 29,5 foizni, 36,7 foizgacha bo'lgan oraliqni tashkil etgan, uchinchi bosqichda AQShda 24,6 foizni, Janubiy Kariyada 23,5 foizni, O'zbekistonda soliq yuki 19,5 foizni, soliq yuki eng past Xitoyni keltirishimiz mumkin keltirilgan ma'lumotlardan soliq yuki 18,4 foizni tashkil etgan.

**Munozara.** Bizningcha, bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari xususan kichik korxonalar faoliyatida soliq menejmentini tashkil etishni qo'yidagi besh bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqichda korxonaning soliq nuqtai nazaridan joylashgan o'rni baholanadi. Bunda «soliq sahro»lari, mavjud amaldagi soliqqa tortish tizimlari, daromadlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga soliqsiz o'tkazilish imkoniyatlari, soliq kreditiga ega bo'lish imkoniyatlari va shartlari, halqaro soliq shartnomalarining shartlari kabi soliq huquqining alohida holatlari e'tiborga olinib, tahlil etiladi va tegishli xulosalarga

kelinadi. Jumladan O'zbekiston hududida «Navoiy» erkin industrial zonaning tashkil etilishi bugungi kunda soliq menejmentini amalda qo'llash vaqti kelganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi bosqichda yuridik shaxsning optimal tashkiliy-huquqiy shakli tanlanib, uning soliq rejimi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil etiladi. Korxonaga qaysi faoliyat bilan shug'ullanishi va qanday soliq tizimida faoliyat yuritishiga bog'liq ravishda soliq majburiyatlarini o'zgartirish imkoniyatlari o'rganiladi hamda muqobil variantlar ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich taktik (qisqa muddatli) soliqli va moliyaviy rejalashtirishni o'zida aks ettirib, joriy ishbilarmonlik faoliyatida soliq imtiyozlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishni talab etadi. Bu yerda shartnomalarni rejalashtirish, barcha asosiy soliq turlari bo'yicha imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, soliq qonunchiligida amalga oshiriladigan o'zgartirishlarga operativ tarzda tezkor moslashish, korxonaga ichki tashkiliy tuzilmasini qayta





ko'rib chiqib, xodimlari salohiyatidan samarali foydalanish, joriy soliq majburiyatlarini imkon qadar kamaytirish kabi masalalar atroflicha o'rganilib, tegishli yechimlarga kelinadi.

Soliq menejmentining to'rtinchi bosqichida korxonada aktivlari va foydasini soliqlarni to'lash nuqtai nazaridan oqilona joylashtirish, amaldagi ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish orqali mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish imkoniyatlari, balansidagi aktivlaridan samarali foydalanish, o'z faoliyatiga innovatsion g'oyalarni joriy etish, mahalliy xom ashyo va materiallardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash kabi tadbirlar ishlab chiqiladi. Ko'pchilik hollarda korxonada foydasi va kapitalini to'g'ri joylashtirish, korxonaning investitsion siyosatini oqilona tanlashning o'zigina korxonani qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Korxonada soliq menejmenti tadbirlaridan biri bo'lgan soliqlarni rejalashtirishga alohida to'xtaladigan bo'lsak, iqtisodiy kategoriyalarni tadqiq etishga nisbatan bo'lgan yondashuvlar logikasidan kelib chiqqan holda, soliqlarni rejalashtirish tushunchasiga qisqa va aniq tushuncha berish lozimdir.

Korxonalarda amalga oshirish taklif etilayotgan soliq menejmentining beshinchi bosqichida solikli rejalashtirishning yakuni hisoblanib, korxonada amalga oshirilgan tadbirlarning samarasini baholash va belgilab olingan rejani amalga oshirish ustidan doimiy nazoratni ta'minlash amalga oshiriladi.



### **Ikkinchi bosqich – rejalarni tuzish**

Korxonaning kelgusidagi moliyaviy xo'jalik faoliyatini mustahkamlash borasida aniq maqsadlarni belgilash, ularga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan uslub va qarorlar qabul qilinadi



### **Uchinchi bosqich – qabul qilingan rejalarni**

#### **amaliyotga joriy etish.**

Mazkur bosqichda aniq belgilangan dastur asosida rejalar amalga oshiriladi. Mazkur bosqichning amaliy natijasi korxonada moliyaviy xo'jalik ko'rsatkichlarida hamda erishilgan soliq tejamida o'z aksini topadi.



### **To'rtinchi bosqich – qiyoslash va tahlil**

Mazkur bosqichda amalda erishilgan natijalar bilan reja ko'rsatkichlar solishtirma tahlil etilib, yuzaga kelgan muammolalarning yechimi topiladi hamda korxonaning kelgusi faoliyatiga o'zgartirishlar kiritiladi



### Beshinchi bosqich – nazorat

Mazkur bosqich soliqlarni rejalashtirish tadbirlarining yakuni hisoblanib, korxonada amalga oshirilgan tadbirlarning samarasini baholash va ular ustidan nazorat yuritilishi ta'minlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda korxonalar o'z faoliyatlari davomida soliq menejmenti tadbirlaridan deyarli foydalanmayaptilar, faqat xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatidagina qisman soliq menejmenti tadbirlarini kuzatishimiz mumkin. Soliqlarni rejalashtirish tushunchasiga iqtisodiy lug'at va ma'lumotnomalarda qo'yidagi ta'riflar keltirilgan: "Rejalashtirish – bu boshqarishning iqtisodiy usullaridan biri bo'lib, iqtisodiy tizimning kelgusidagi

holatini aniqlovchi rejalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish yo'llari va usullari, ularga erishish vositalari majmuasidir"[11].

Mazkur ta'rifga yaqin bo'lgan ta'riflarni boshqa mualliflar ham keltirib o'tadilar: «Soliqlarni rejalashtirish bu iqtisodiy subyekt faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy subyektning kelgusidagi faoliyatining maksimal daromadli bo'lishga erishishi bilan bog'liq bo'lgan hamda faoliyatini barcha jabhalarini qamrab olgan rejalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari va usullari, ularga erishish vositalaridir»[12].

Korxonaning aniq bir faoliyat turini rejalashtirish imkoniyati iqtisodiyotning makroiqtisodiy jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, korxonadan o'zining ishlab chiqarish faoliyatini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil etib, faoliyati davomida uchrayotgan muammolarni bartaraf etish

yuzasidan asosli va optimal yechimlarini ifodalash usulidir[13].

**Xulosa.** Soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukining to'g'ri taqsimlanishini yo'lga qo'yish maqsadida soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarning darajasi korxonalarining daromad olish darajasiga nisbatan belgilanmagan. Bundan tashqari barcha soliq xizmati organlar o'z e'tiborini tekshirish oson bo'lgan soliq to'lovchilarga qaratgan, ya'ni, mikrofirmalar va kichik biznes korxonalariga, bunday holda esa soliq to'lovchilarning asosiy qismi katta korxonalar va boshqalar qonuniy yo'lda ham noqonuniy yo'lda ham soliq to'lovlaridan qochib ketish imkoniyati paydo bo'ladi, bir xil daromadlarni bir xil soliqqa tortish tamoyili ham bizning Respublikamizda hozirgi kunda to'liq amal qilayotganini ta'kidlash mumkin.

Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy fondlari va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromad turlicha aniqlanmoqda. Mazkur daromad savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida uning qoldiq qiymati bilan sotish o'rtasida farq sifatida aniqlanadi. Ta'minot va sotuv korxonalarida esa asosiy fondlar va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan tushum soliq ob'yekti hisoblanadi. Demak, bu holatda mazkur korxonada ushbu mulklar realizatsiyasidan daromad ko'rish ko'rmasligidan qat'iy nazar olingan tushumdan soliq to'lashi shartdir. Bu tartibni bekor qilish iqtisodiyot tarmoqlarida soliq yukining pasayishiga xizmat qiladi.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 yanvar kuni PF-60 sonli «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmon
2. Вылкова Е.С., Романовский М.В.Налоговое планирование.-СПб.: «Питер», 2004.- 634 с.
3. Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.:«Бератов-Пресс». 2014
4. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –Т.: “Sharq”. 2009. -526 b.
5. Tax reform and the political economy of the tax base. Journal of Public Economics Volume 164, August 2018, Pages 197-210
6. Никитин А. Никитин С. Степанова А., Налоговые льготы стимулирующие предпринимательскую деятельность в развитых странах запада. //Мировая экономика и международные отношения. М., №11, 2000, 536.
7. I.Xadarning “The International Lawyer” ilmiy jurnalida ilmiy maqolasi e‘lon qilingan “Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliq imtiyozlarining o‘rni: rivojlanayotgan davlatlar misolida) Source: [https:// www.scopus.com](https://www.scopus.com)
8. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 7, Source: <https://www.scopus.com/sourceid/5700168589>
9. [http://www.economywatch.com/economic-statistics/economic-indicators/Tax\\_Burden\\_Percentage\\_GDP](http://www.economywatch.com/economic-statistics/economic-indicators/Tax_Burden_Percentage_GDP)
- 10.Поршнева А.Г. и др. Налоговый менеджмент.- М.: Инфра, 2003 с.235.
- 11.Вечканов Г.С., Вечканова Г.Н. Словар рыночной экономики.-СПб.:ТОО ТК Петрополис, 1995.-с.205.
- 12.Райзенберг Б.А.Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь- М.:Инфра-М, 2001.-с.286.
- 13.Алексеева М.М. Планирование деятельности фирмы. – М.: Финансы и статистика, 2001. -с.34.